
Hududlardagi muammolarning yechimi ta'minlanmoqda

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, fuqarolarning e'tirozlari va murojaatlariga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etish maqsadida barcha darajadagi hokimlar va sektorlar rahbarlari tomonidan hududlardagi aholi bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Bunda asosan, hududlardagi muammolarning yechimini ta'minlash, aniqlangan muammolarni imkon qadar joyida hal etilishiga erishish, muddat va mablag' talab etadigan masalalar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kuni kecha tuman hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov hamda tumandagi barcha tashkilot rahbarlari Qiyqi hamda Sohibkor mahalla fuqarolar yig'inlari fuqarolari bilan uchrashdilar.



Uchrashuvda tuman hokimi yil davomida erishilgan yutuqlar, amalga oshirilayotgan ishlar hamda bu yil paxta rejasini birinchi bo'lib bajarganligimiz uchun tumanimizga 5 milliard so'm miqdorida mablag' ajratilganligi va ushbu mablag'ni qaysi sohalar kesimida taqsimlanganligi haqida to'xtalib o'tdi.



Uchrashuv davomida 22-dekabr kuni bo'lib o'tadigan saylovlarda fuqarolarimizning faol ishtirok etishlari va o'zlari munosib ko'rgan nomzodlariga ovoz berishlari ta'kidlab o'tildi.





Shuningdek, uchrashuvda mahalla faollari tomonidan hududdagi yechimini kutayotgan muammolar bo'yicha tuman hokimiga murojaat qildilar. Murojaatlar yuzasidan tegishli tashkilot vakillari muammoning yechimi va aniq muddatini aytib o'tdilar.

Uchrashuvlar davom etmoqda

2019-12-07 14:53:07